

## INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA ILM-FAN VA TA'LIM-TARBIYA INTEGRATSIYASI

Oltinova Yishoda Olim qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim 2-kurs talabasi

**Annotasiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda zamonaviy texnologiyalarni ta'lim-tarbiya yo'lida to'g'ri qo'llay olishni shakllantirish va ularni uyg'unlashtirish, integratsiyani to'liq singdirish haqida mulohaza yuritiladi

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, integratsiyasi, ta'lim-tarbiyani uzviy bog'liqligi, bola psixikasi, pedagogik mahorat, xorijiy tajribalar, namuna, mushohada, mantiq.

Kirish.

Innovatsiya - bu asl inglizcha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilida kiritib kelganda yangilik, yangilik kiritish, ixtiro degan ma'nolarni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar hozirgi kunda davr talabi bo'lib qolganda unga befarq bo'la olmaymiz. Chunki hayotimizni har jabhasida texnikalar bilan aloqa mavjud. Xususan ta'lim jarayonida ham zamon talabi va xorijiy davlatlar ta'lim darajasiga yetishib olishimiz uchun hozirda innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va maqsadli ravishda foydalanish talab qilinadi. Pedagogik jarayonda esa innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun avval pedagogning o'zi ham ma'lum darajada tushunchaga ega bo'lishi kerak. Bizdagi eng katta muammo ham aynan anashu nuqtada ko'rinadi. Hozirda O'zbekistondagi maktablarining 70% izi zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlangan. Ammo ulardan to'g'ri foydalana oladigan kadrlar mavjudmi? degan savol uyg'onadi. Bu savolga o'z hududim miqyosida aytadigan bo'lsam, malakali va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni biladigan kadrlar juda kam miqdorda. Buning sababi shundaki bu innovatsion texnologiyalar ta'limda innovatsiya olib kirish uchun, ta'lim sifatini yaxshilash va zamon bilan birga rivojlanish uchun kiritildi. Lekin ayrim pedagoglar dars jarayonida AKT vositalaridan foydalanayapman deb xato o'ylaydilar. Oddiygina taqdimot yoki bo'lmasam vedioroliklarni qo'yib berish, uni boshidan oxirigacha o'qib tushuntirish bu ta'lim sifat darajasini oshirish uchun xizmat qilmaydi, ta'lim bu ahvolda biz kutgan natijani bera olmaydi. Biz shu kabi muammolarni tan olishimiz zarur va bo'lajak pedagoglar, uzoq ish tajribasiga ega o'qituvchilarimiz izlanib bu texnologiyalardan unumli va maqsadli foydalanishga harakat qilaylik. Bir xillikdan voz kechishimiz, oson yo'ldan uzoqlashishga harakat qilsak, shunda kutgan natijamizga erisha olamiz.

Integratsiya - so'zi lotincha so'zdan integratio- tiklash, to'ldirish, integer- butun so'zidan olingan va turli yo'nalishda turli ma'nolarni anglatadi. Ta'lim - tarbiya integratsiyasi - o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha hisoblanib ta'limning o'zida ham qo'llaniladi va fanlarga nisbatan fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni ya'ni differensiatsiya bilan birga kechishi nazarda tutiladi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishni ta'limda qo'llanganligi bu bizning katta yutug'imiz. Biz nafaqat bizning bilimlarimizni oshirib mustahkamlaymiz, balki chet mamlakatlarning ta'lim va tarbiya tizimini mukammal o'rganish va o'rgatishga yetaklaydi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan murakkab va og'irroq faoliyatdir. Aqliy mehnatimizni yengillashtirish va unumli qilish uchun ham innovatsion texnologiyalar zarur. Hozirgi kunda sport, yengil atletika, sanoat, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning turli jabhalari yurtimizning ravnaq topishi uchun muhim bo'lgani kabi ta'lim - tarbiya va innovatsion texnologiya sohalarini chuqur egallash va bu sohada rivojlanishni oshirish bu har qaysi sohaga nisbatan

yurtimizni jahonga tanilishini ta'minlash uchun asos bo'ladigan jarayon hisoblanadi. Shu boisdan ham birinchi navbatda ta'lim - tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hoziri davrida ta'lim sifatini yaxshilash va yangi yutuqlarga erishish uchun ham jahon talablari asosida innovatsion texnologiyalarni qo'llay olishni o'rganish muhim rol o'ynaydi. Bizning buyuk bobolarimiz yaxshi shart - sharoit bo'lmasligiga qaramasdan dunyo tan olishi natijasigacha borgan yutuqlarga erishganlar. Bizchi? Biz yoshlar davlatimiz tomonidan yaratilgan barcha qulayliklar bo'la turib ham Vatanimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tara olmaymizmi? Biz buyuk bobolarimizga xos avlod bo'lishimiz zarur.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.

2. Eshpo'latova Xadicha Murodovna. Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi - maqola. Ta'limda innovatsion texnologiyalarning turlari va ahamiyati.